



## **SYUJETLI-ROLLI O'YINLAR ORQALI MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NING IJODKORLIK QOBILIYQTINI OSHIRISH**

**Muallif:** Babaxanova Roza Omarovna<sup>1</sup>

**Affiliatsiya:** Alfraganus universiteti - Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti "Pedagogika va psixologiya" magistratura mutaxassisichligi 2-kurs magistranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14435873>

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlik qobiliyqtini oshirish xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, psixologiya, tarbiyachi, tarbiyalanuvchilar, bilim, ko'nikma, faoliyat, pedagogik, imkoniyatlar.

Bugungi kunda bizning jamiyatimiz aqlli va ijodkor mutaxassislarga har qachongidan ham ko'proq muhtoj. Hozirgi sharoitda ijodkorlik masalasi hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim masalalardan biri sanaladi. Chunki ijodkor, o'z ishiga mas'uliyatli, vaziyatga kreativ yondoshadigan mutaxassis sifatida ilm-fan, ta'llim, ma'naviyat-ma'rifat, texnika, ishlab chiqarish, qo'yingki barcha sohalar rivojiga o'z hissasini qo'sha oladi. Shunday ekan ijodkorlik qobiliyatlarini maktabgacha ta'llim tashkilotlaridanoq boshlash dolzarb va muhimdir. Ta'llimning boshlang'ich, shu bilan bir paytda eng muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'llim tizimini isloh qilish va rivojlantirishda davlat va hukumatning markaziy e'tiborida bo'lib kelayotgani beziz emas.

O'zbekistonda maktabgacha ta'llimning jadal rivojlanish tarixi 2017 yildan boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tizimni isloh qilish va takomillashtirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning qator farmon hamda qarorlari qabul qilindi. Xusan, 2019 yilning 8 may kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'llim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror bolalarning maktabgacha ta'llim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'llim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish borasidagi imkoniyatlarni kengaytirdi.

Bu kabi keng qamrovli islohotlar natijasida yangilangan va moddiy-texnik jihatdan yaxshilangan maktabgacha ta'llim tashkilotlarida rivojlanishning keyingi bosqichi - maktabgacha ta'llimda sifat va samaradorlikni ta'minlash jarayonlari jadallik bilan boshlanganini va bu jarayonning mas'uliyatini barcha soha xodimlari to'g'ri anglab, his etib turibdi. Aynan maktabgacha ta'llim tashkilotlarida sifat va samaradorlikni ta'minlashda yaratilgan zamonaviy o'quv dasturlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Hukumat qarori bilan 22.12.2020 yilda 802-sonli "Maktabgacha ta'lif va tarbiyaning davlat standarti" tasdiqlandi. Qarorga ko'ra, davlat standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari;
- Maktabgacha ta'lif tashkilotining davlat o'quv dasturi;
- Maktabgacha ta'lif tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me'yorlari.

Shu bilan birga, bolaning o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi hisoblanadigan "Men" konsepsiysi davlat talablarining asosiy prinsiplaridan etib belgilandi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lif-tarbiya berish, maktab ta'lifiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilab berildi.

Pedagogik texnologiya — bu tarbiya» ta'lif-tarbiya vositalari yordamida bolalarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir. 1970 yillarga kelib pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Masalan, akademik V. P. Bespalko pedagogik texnologiyani quyidagicha talqin qiladi: «bu mahoratiga bog'liq bo'limgan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan shaxsni shakllantirish jarayonining loyihasidir» deb ta'riflaydi. Maktabgacha ta'lif jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya bu bolalarni ta'lif materiallarini o'rganish orqali nutqini rivojlantirish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, o'zaro muloqot, tevarak atrof bilan tanishish jarayonini yangicha tashkil etishdir. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog'lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'lifiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lif jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy etish ijobjiy natijalarni berdi va samarasi kafolatlandi. Jumladan, «Ixтирили muammolarni yechish nazariyasi», «M. Montessori texnologiyasi», «Loyihalar usuli» maktabgacha ta'lif jarayoniga kirib keldi va ular amaliyatda muvaffaqiyatli qo'llanilmokda.

Bola o'z hissiyotlarini musiqa, teatr, tasviriy faoliyat va boshqalar orqali ifodalashni o'zlashtiradi. Rassomlik sohasida Rafael Santining ijodiy qobiliyati sakkiz yoshida, Mikelandjeloda o'n uch yoshda, I.Ye.Repin bilan V.A.Serovda to'rt yoshda, V.I.Surikovda olti yoshda ko'rina boshlagan. Igor Grabar o'zi haqida: «Rassomlikka necha yoshda havas qo'yanligimni eslay olmayman, ammo rasm solmagan vaqtimni xotirlay olmayman», – deydi. Mashxur pedagog va psixologlardan D.B. Elkonin, D.V. Mendjeritskiy , P.Ye. Samarukova va boshqalarning fikricha , Syudjetli –rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy holatidagi rahbarning hatti-harakatlari ko'rinishlari,bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining mazmunini oladigan faoliyat turidir

Tadqiqotning maqsadiga erishishda quyidagi vazifalar belgilab olindi va bajarildi:

- Syujetli-rolli o'yinlarni tashkil qilishning nazariy asoslarini o'rganish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishning rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rib chiqish;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlashning ilmiy asoslarini yoritib berish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning syujetli-rolli o'yinlar faolligini oshirish texnologiyalarini tahlil qilish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyatining axamiyati yoritib berish;
- Bola shaxsini shakllantirishda syujetli-rolli o'yinlarni tashkil qilish shart-sharoitlari asoslab berish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ qobiliyatlarni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;
- Syujetli-rolli o'yinlar orqali tarbiyalanuvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda musiqiy harakatlarni qo'llashni joriy qilish;
- Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlik qibiliyatlarini oshirish yo'nalishlarini aniqlab olish.

Dissertatsiya ishining obekti sifatida Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi maktabgacha ta'limga muassasalaridagi bolalarning ijodkorlik qobiliyatini oshirishda olib boriladigan syudjetli saxnalashtirilgan o'yinlar jarayoni olingan. Magistrlik dissertatsiya ishining predmeti sifatida Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi maktabgacha ta'limga muassasalarida olingan amaliy natijalar, tahlillar, texnik va texnologik ma'lumotlari olingan.

Magistrlik dissertatsiya ishining tadqiqot usullari sifatida Syujetli – rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazida ko'rgazmalar tayyorlash, ilmiy-uslubiy adabiyot ma'lumotlari bo'yicha muommoning holatini o'rganish va tahlil qilish.

Maktabgacha ta'limga muassasalaridagi tarbiyanaluvchilarining iqtidorlari ochib berildi. Syujetli-rolli o'yinlar orqali yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish usullari ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'limga muassasalarining mavjud imkoniyatlaridan maksimal foydalaniib tarbiyalanuvchilarining iqtidorini oshirish bo'yicha takliflarga asoslangan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Tarbiya fanining metodikasi. Toshkent: "Pedagogika" nashriyoti. G'afurov. R. (2016-yil).

Ta'limga zamонавија yondashuvlar va metodikalar. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. Hoshimova N. (2018-yil).

Pedagogik tadqiqotlar va ularning natijalari. Toshkent: "O'zbekiston ta'limi" nashriyoti. Koziyev X. (2022-yil).

O'zbekiston Respublikasining Ta'limga to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi ta'limga tizimidagi yangi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar. Toshkent Sh., 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son.